

O'ZBEK VA HIND XALQLARI MADANIYATIGA OID TERMINLAR

Qurbonova Oysha Komiljonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti 2-kurs talabasi

Xabibulloyeva Gulchehra Komiljonovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti quyi kurslar chet tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Bu maqolada o'zbek va hind xalqlari o'rtasidagi madaniyatlarga xos so'zlar taqqoslangan bo'lib, eng ko'p qo'llaniladigan to'y marosimlariga oid atamalarga ham izohlar berib o'tilgan. Garchi ushbu ikki mamlakat osiyo mintaqasida joylashgan bo'lsada, ular o'rtasidagi tafovut juda yuqori bo'lib, din va iqlimi jihatlariga ko'ra ham ancha farqlanadi.

Bu tezisda O'zbek va Hindiston xalqlaridan nikoh marosimlari qanday boshlanishlarini yoritib beriladi. O'zbekistonda sovchilikka ayollar kelinning uyiga kelishsa, Hindistonda bizdagi odatning teskarisi ularda kelinning ota-onasi kelin bilan birgalikda kuyovning uyiga sovchilikka borishadi. O'zbek xonadonlarida sovchilar kelin xonadonini surishtirib, avlodlari, nasl-nasabini surishtirib kelgandan so'ng kelin xonadoniga "uyingizga qulchilikka keldik" deya, uylariga sovchilar borishadi. Shunday holatda ham birdan kelishib ketishmaydi, oldin kelinning otasi rozi bo'lishi keyin kuyovning oilasi surishtirilgandan so'ng, bo'lajak kelin-kuyov uchrashib ko'rishadi, agar ularning qiziqishlari mos kelib, ikki tomon kattalari rozi bo'lishgandan so'ng to'y kuni aniqlashtira boshlaydi. Lekin Hindistonda, o'rtakashlar tomonidan kelin oilasi kuyovning oilasiga borishadi, ularda kelin ham birga borganligi uchun ular uchrashib, gaplashib olishadi, ularning qiziqishlari to'g'ri kelib, kelin tomon beradigan qalin puli mos kelsa ular uzoq kunlar davom etadigan to'y marosimlari boshlanib ketadi. Yana bir farqli jihati shundaki, Hindistonda kelin uchun kuyov qidirish jarayonida ular pandit(pundit deb yoziladi)bilan gaplashishadi, ularning tug'ilgan burjlarini solishtirib qanchalik bir-birlariga mosligi ko'riladi.

O'zbek xonadonlari to'y xarajatlari ikkiga bo'linsa, ya'ni kelin tomon o'zlariga, kuyov tomon o'zini xarajatlarini ko'tarsa, Hindistonda to'y uchun 700-800 kishi chaqirtirilishi kerak, qolgani kelin oilasining oilaviy sharoitiga qaraladi. Nigoh marosimigacha hindlarda juda ko'p rasm-rusmlar bo'ladi. Hindiston to'yi O'zbek to'ylaridan ko'p jihati bilan farqlanishini bilamiz, yana bir farqli jihatlaridan biri shundaki, O'zbek to'ylari kelin oq to'y libosi(fata deb nomlanadi) kiyishadi, kuyovlar esa odatda qora kostyum-shim kiyishadi. Hindistonda qizil rang o'ziga xos hisoblanadi va kelinlar asosan qizil sari kiyishadi yoki lengha (yubkadan iborat kiyim) kuyovlarning maxsus kiyimi bo'lsa sherwani deb nomlangan kiyim va salla kiyishadi. Bu ularning o'ziga xos kiyimlari xuddi har davlatning o'ziga xos kiyimlari bo'lgandek. O'zbek to'ylari odatda ko'pi bilan 3kun davom etadi, hind to'ylari 3 kundan 1 haftagacha cho'zilishi mumkin. O'zbek to'ylari asosan bir nechta marosimdan tashkil topadi Fotiha to'yi, Nahor osh(bu to'y erkaklarga mo'ljallangan bo'lib kelin ham kuyov tomon ham osh berishadi) qizlar bazmi, va asosiy to'y. Fotiha to'yida kelin-kuyov unashtiriluvi bo'lib, kattalar yig'ilishib non sindirishadi va ikki yoshga yaxshi, mazmunli, tinch-faravon umr tilashadi va bu yaqinlar tanishuv kuni hisoblanadi. Bundan so'ng kelin va kuyov uchun sarpo yig'ilishib bir kun belgilanadi va ikki taraf faqat yaqinlar yig'ilishib kelin uyiga olib kelishad. Asosiy to'y qolgan ikki kunda bo'ladi, ya'ni asosiy to'ydan bir kun oldin kelin tomon qizlar bazmi qilishadi, bu qizning qarindoshlari yaqin dugonalari yig'ilishib qiz bilan xayrlashish marosimidek o'tadi. Ertasi kuni asosiy to'y kuning boshlashida ertalab, nahordan kuyov tomon elga osh berishadi barcha qarindosh do'st-yorlar kelishadi ikki yoshga baxt tilashadi, undan so'ng kelini olib ketish uchun kuyov va jo'ralari kelin uyiga katta tantana bilan borishadi va kelini kechqurun yaqinlar bilan bo'ladigan bazmga olib kelishadi. Bu juda ham ajoyib bazmlardan biriliging sababi shuki, unda faqat yaqinlar bo'ladi. O'zbek to'ylarining eng muhim jihati shundaki, ikki yosh nikohdan o'tish uchun imom nikoh xutbasini o'qiydi va rasmiy tasdiqlash uchun ular kelini olib ketish jarayonida nikoh hujjatini imzolashadi va uzuklarni taqishadi. Hindistonda ham asosan 4ta bazmdan tashkil topadi bular tilak marosimi, haldi (yoki piti) marosimi, mehndi ziyofati va sangietdan keyin asosiy to'y uchinchi

kuni bo'lib o'tadi va faqat yaqin do'stlar va oila a'zolari ishtirok etadilar. Ularda birinchi kun hamma yaqin do'st-birodarlar to'planishadi, ularda hamma aytilishi hurmat uchun ham qatnashishlari shart bo'ladi, kimdir to'yga kelmay qolishi mumkin emas, asosiy to'y kunida kuyov ot, fil yoki chiroyli mashinada kelin uyiga keladi. Va Saptapadi (yetti qadam) qadam deb nomlangan ananalari boshlanadi bu kelin-kuyov olov atrofida yetti bor aylanishi kerak bo'lgan marosimdir. Pandit 7ta duo o'qiyotgan paytda kelin-kuyov olov atrofini baxtli bo'lishlari uchun yetti bor aylanishadi. Yetti bor olov atrofida aylanishlarning ma'nosi ular yetti hayotda birga bo'lishlarining ramzi hisoblanadi. Bundan so'ng katta ziyofat boshlanadi va bunda faqat yaqin insonlar qolishadi, hindlarda yana bir an'ana shuki, ikki yosh yaqinlari ularga musiqaviy tomosha qo'yib berishadi, bu ularga hursandchilik belgisi hisoblanadi. Albatta, to'ylarda ham qiziqarli voqealar juda ko'p bo'ladi, hindistonliklar kuyovning oyoq kiyimini yashirib qo'yishib u bilan hazil qilishadi va evaziga pul olishadi, o'zbeklarda esa kelini olib ketish paytida kelin qarindoshlari ularning yo'liga turib olishib kuyovdan ko'rmana (yo'lni ochish uchun beriladigan pul) olishadi. Har bir davlatning o'ziga xos an'ana va turli xil rang-barang bazmlari bor har bir millat uchun esa o'zlarining urf-odalari yoqimli, albatta.

OLINGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/traditions/uzbek-wedding/>
2. <https://www.brides.com/indian-wedding-traditions-4795877>
3. <https://uz.everaoh.com/hind-toyi/>
- 4 .G.Khabibulloyeva, A.Safarova, “ THE USAGE OF PHRASEOLOGICAL AND IDIOMATIC UNITS IN THE NOVEL "BETWEEN THE TWO DOORS" BY UTKIR KHOSHIMOV”, international conference Exploring global perspectives in language teaching and learning. 21.02.2024.503-504pp.